

## HUDUDIY IJTIMOYIY-IQTISODIY TIZIMDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI SHAKLLARI VA MODELLARI

**Ataniyazova Maksuda Baltabayevna**

Toshkent amaliy fanlar Universiteti  
“Umumiqtisodiy fanlar” kafedrası mudiri

ORCID 0009-0000-9403-6693

E-mail: [maksuda.ataniyazova@mail.ru](mailto:maksuda.ataniyazova@mail.ru)

### Annotatsiya

Maqolada hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda davlat-xususiy sheriklik shakllari va modellari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kontrakt asosidagi sheriklik, infratuzilmaviy sheriklik, investitsion hamkorlik va aralash mulkchilik modellari xalqaro tajriba asosida o‘rganilgan. Tahlil natijalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar sifatini oshirishdagi ahamiyati aniqlangan. Konsessiya, BOT va lizing modellari hududiy iqtisodiy rivojlanishda samarali vosita sifatida baholangan. Tadqiqot O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional asoslari takomillashayotganini ko‘rsatgan. Olingan natijalar hududiy iqtisodiy siyosatda investitsion faollikni oshirish va davlat resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat-xususiy sheriklik, hududiy rivojlanish, konsessiya, BOT modeli, investitsiya, infratuzilma, aralash mulkchilik, iqtisodiy samaradorlik.

### Аннотация

В статье проведён теоретический и практический анализ форм и моделей государственно-частного партнёрства в региональной социально-экономической системе. В исследовании рассмотрены контрактные формы сотрудничества, инфраструктурное партнёрство, инвестиционные механизмы и модели смешанной собственности на основе международного опыта. Результаты анализа показали значимость механизмов государственно-частного партнёрства в развитии инфраструктуры, привлечении инвестиций и повышении качества услуг. Модели концессии, ВОТ и лизинга были определены как эффективные инструменты регионального экономического развития. Исследование подтвердило совершенствование правовых и институциональных основ государственно-частного партнёрства в Узбекистане. Полученные результаты способствовали обоснованию направлений повышения инвестиционной активности и эффективного использования государственных ресурсов.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнёрство, региональное развитие, концессия, модель ВОТ, инвестиции, инфраструктура, смешанная собственность, экономическая эффективность.

### Abstract

The article analyzed theoretical and practical aspects of public-private partnership forms and models in the regional socio-economic system. The study examined contract-based partnerships, infrastructure cooperation, investment partnerships, and mixed ownership models based on international experience. The findings demonstrated

the importance of public-private partnership mechanisms in infrastructure development, investment attraction, and improvement of service quality. Concession, BOT, and leasing models were identified as effective tools for regional economic development. The research confirmed the ongoing improvement of legal and institutional frameworks for public-private partnerships in Uzbekistan. The results contributed to identifying approaches for increasing investment activity and improving the efficient use of public resources in regional economic policy.

**Keywords:** public-private partnership, regional development, concession, BOT model, investment, infrastructure, mixed ownership, economic efficiency.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayishi, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy raqobatning ortib borishi hamda aholi ehtiyojlarining kengayishi davlat boshqaruvi tizimiga yangi talablarni qoʻymoqda. Ayniqsa, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni samarali rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda davlatning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xususiy sektor resurslarini keng jalb etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari hududiy rivojlanishni taʼminlashning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli boʻlib, unda tomonlar ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiyalar, risklar, xarajatlar va foydalarni oʻzaro taqsimlaydi. Mazkur mexanizm rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda transport, energetika, sogʻliqni saqlash, taʼlim, uy-joy kommunal xoʻjaligi hamda boshqa strategik tarmoqlarda keng qoʻllanilmoqda. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalari infratuzilma obyektlarini tez va sifatli qurish, xizmatlar samaradorligini oshirish hamda davlat byudjeti yukini kamaytirishda muhim rol oʻynaydi.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar murakkab va koʻp tarkibli tizim boʻlib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va infratuzilmaviy elementlarning oʻzaro bogʻliqligi asosida faoliyat yuritadi. Ushbu tizimlarning barqaror rivojlanishi hududlarda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi ish oʻrinlari yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, shakllari va modellari boʻyicha turli yondashuvlar mavjud. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlar D. Grimsey, M. Levis, E.R. Yeskombe, J. Delmon va boshqalar DXShning moliyaviy mexanizmlari, risklarni boshqarish tizimi hamda

infratuzilma loyihalaridagi samaradorligini chuqur tadqiq etganlar. MDH mamlakatlari olimlari esa davlat-xususiy sheriklikning institutsional asoslari, hududiy rivojlanishga ta'siri va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi rolini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. DXShning shakllari va modellari xalqaro tajriba asosida turlicha tasniflanadi. Umumiy tasnifga ko'ra, DXSH quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Kontrakt asosidagi sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, u davlat tomonidan muayyan xizmatlarni bajarish yoki infratuzilmani boshqarish majburiyatining xususiy sektorga topshirilishini anglatadi. Bu model davlatga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Kontrakt asosidagi sheriklik turli shakllarda namoyon bo'lib, ulardan eng keng tarqalgani konsessiya, autsorsing va servis shartnomalaridir. Konsessiya shartnomalari uzoq muddatli bo'lib, xususiy kompaniyalarga davlat infratuzilmasidan foydalangan holda xizmat ko'rsatish huquqini beradi. Autsorsing esa davlat xizmatlarining ma'lum qismini xususiy sektorga topshirish shaklidir, bu esa tezkorlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi[2].

Xalqaro tajribada kontrakt asosidagi sheriklik modeli turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish maqsadida "Private finance initiative" (PFI) modeli asosida ko'plab infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilgan. Bu model orqali yo'llar, kasalxonalar va maktablar qurilishi xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilib, boshqarilgan. Fransiyada esa transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun uzoq muddatli konsessiyalar keng qo'llaniladi, masalan, "Vinsi" va "Eiffage" kabi kompaniyalar davlat bilan shartnoma tuzib, yo'llar va tunnellar qurilishida ishtirok etadi[3].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kontrakt asosidagi sheriklik modeli keng qo'llanilmoqda. Masalan, Hindistonda davlat transport tizimida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish uchun avtobus va metro xizmatlari xususiy kompaniyalarga autsorsing qilinmoqda. Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida servis shartnomalari orqali davlat va xususiy sektor hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, kontrakt asosidagi sheriklik davlat resurslarini samarali taqsimlash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi[4].

2. Infratuzilmaviy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning eng samarali shakllaridan biri bo'lib, ko'pincha uzoq muddatli loyihalarda qo'llaniladi. Ushbu model asosida xususiy sektor infratuzilmani loyihalashtiradi, quradi va uni belgilangan muddat davomida boshqarib, foyda oladi. Obyekt davlat ixtiyoriga o'tadi. "Build-Operate-Transfer" (BOT) va "Design-Build-Finance-Operate" (DBFO) modellarining afzalligi shundaki, ular davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirib, loyihalarning tezroq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi[5].

Xalqaro tajribada infratuzilmaviy sheriklikning muvaffaqiyatli namunalaridan biri Buyuk Britaniyaning "Private finance initiative" (PFI) dasturi hisoblanadi. Ushbu model asosida sog'liqni saqlash, ta'lim va transport infratuzilmasi rivojlantirilib,

ko'plab davlat obyektlari xususiy investitsiyalar hisobiga qurilgan. Masalan, Londonning metro tizimi va shifoxonalarini modernizatsiya qilish loyihalari aynan PFI modeli asosida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, Janubiy Koreya ham infratuzilmaviy DXSH loyihalariga e'tibor qaratib, Inchxon xalqaro aeroporti kabi yirik obyektlarni xususiy sektor bilan hamkorlikda barpo etgan.

Osiyo va Lotin Amerikasida ham infratuzilmaviy sheriklik faol rivojlanmoqda. Xitoyda "ONE BELT, ONE ROAD" tashabbusi doirasida yirik infratuzilmaviy loyihalar xususiy sektor ishtirokida amalga oshirilmoqda. Braziliyada esa davlat yo'l infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida ko'plab avtomobil yo'llarini xususiy kompaniyalarga boshqaruvga bergan. Bu model xizmat sifatini oshirish va transport tarmog'ini modernizatsiya qilishga yordam bermoqda. Shu bois, infratuzilmaviy sheriklik zamonaviy infratuzilmani barpo etish va samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri sifatida butun dunyoda keng qo'llanilmoqda.

3. Investitsion sheriklik – xususiy sektor davlat obyektlariga investitsiya kiritadi va ma'lum muddat davomida xizmat ko'rsatishdan daromad oladi. Bu, ayniqsa, turistik xizmatlar, tibbiy va ta'lim sohalarida keng tarqalgan. Investitsion sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modeli bo'lib, u xususiy investorlarga davlatga tegishli obyektlarga sarmoya kiritish va ma'lum muddat davomida xizmat ko'rsatish orqali daromad olish imkonini beradi. Bu mexanizm, ayniqsa, infratuzilmaga katta sarmoya talab qilinadigan sohalar – ta'lim, tibbiyot va turizmga keng qo'llaniladi. Masalan, xususiy kompaniya davlatga qarashli maktab yoki kasalxonani qurish yoki modernizatsiya qilish uchun sarmoya kiritadi, keyin esa davlat bilan tuzilgan shartnomaga asosan xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va o'z investitsiyasini qaytarib olish uchun belgilangan muddat davomida daromad oladi.

4. Aralash mulkchilikka asoslangan davlat-xususiy sheriklik modeli davlat va xususiy sektor o'rtasidagi investitsiya va mulkchilik majburiyatlarining umumiy taqsimotiga asoslanadi. Bu modelda har ikki tomon ham kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi, aktivlarni boshqaradi va olinadigan daromadlarni kelishilgan nisbatda taqsimlaydi. Aralash mulkchilikka asoslangan sheriklik ko'pincha strategik ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilmaviy loyihalarda, shu jumladan, kommunal xizmatlar, energetika, transport va sog'liqni saqlash sohalarida qo'llaniladi. Bunday sheriklikning asosiy afzalligi shundaki, davlat resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanadi va xususiy sektorning innovatsion imkoniyatlaridan keng foydalaniladi[7].


## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda davlat-xususiy sheriklik shakllari va modellari nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Davlat-xususiy sheriklikning konsessiya, BOT, lizing, infratuzilmaviy va investitsion modellari xalqaro tajriba asosida tahlil qilindi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilgan DXSh loyihalari o'zaro solishtirilib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri baholandi. O'zbekiston amaliyotidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari transport, energetika, sog'liqni saqlash va ta'lim

sohalari misolida o'rganildi. Tadqiqotda Jahon banki, OECD va milliy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Olingan natijalar asosida davlat-xususiy sheriklikning hududiy investitsion faollik, infratuzilma samaradorligi va xizmatlar sifatiga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, aralash mulkchilik modeli Yevropa, Osiyo va Amerika qit'asida keng tarqalgan. Masalan, Germaniya va Fransiyada davlat-xususiy korxonalar kommunal xizmatlar (energiya ta'minoti, suv bilan ta'minlash) sohasida faoliyat yuritib, davlat va xususiy investorlar o'rtasidagi moliyaviy risklarning muvozanatli taqsimotini ta'minlaydi. Xitoyda esa aralash mulkchilik modeli davlat tomonidan boshqariladigan korxonalarining bozor mexanizmlariga integratsiya qilinishini tezlashtirish uchun faol qo'llaniladi. Ushbu modelda transport va infratuzilma loyihalari doirasida davlat-xususiy sheriklik korporatsiyalari tashkil etilib, federal va mahalliy hukumatlar xususiy investorlar bilan hamkorlikda kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi[6].



**1-rasm. Iqtisodiyot soha va tarmoqlarida DXSHning asosiy shakllari<sup>1</sup>**

<sup>61</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ham aralash mulkchilikka asoslangan DXSH modellari taraqqiy etmoqda. Jumladan, transport va logistika sohalarida davlat va xususiy kompaniyalar hamkorligidagi korxonalar tashkil etilmoqda. Yaqin yillarda tibbiyot va ta'lim sohalarida davlat-xususiy sheriklik modellarini keng qo'llash rejalashtirilgan bo'lib, bu xizmat ko'rsatish sifati va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda DXShning huquqiy bazasi xalqaro standartlarga moslashtirilayotgani ham aralash mulkchilikka asoslangan sheriklik modelini barqaror rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, muayyan modelni tanlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilishga bog'liqdir.

Shu o'rinda aytish kerakki, operator modeli davlat va xususiy sheriklar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashga asoslanadi. Bu model chiqindilarni qayta ishlashda qo'llaniladi.

Kooperatsiya modeli soliqqa tortishning mustaqil obyektlariga xizmat ko'rsatish murakkab bo'lganda qo'llaniladi. Bu mexanizm davlat va xususiy tadbirkorning qo'shma korxonasi orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot soha va tarmoqlarida DXShning asosiy ko'rinishlari quyidagilarga tasniflanadi (1.1-rasm):

Shartnomaviy modeli ko'pincha joriy xarajatlarni pasaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha energetika tarmog'ida qo'llaniladi.

Moliyaviy lizing modeli davlat tomonidan xususiy sektorga bino, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari, transport vositalari, muhandislik majmualarini ijaraga berishni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

Yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni realizatsiya qilishda konsessiya modeli alohida qiziqish uyg'otadi. Turli xil yondashuvlarga asoslanadigan bo'lsak, konsessiya modeli DXShning quyidagi sabablarga ko'ra, rivojlangan shakli hisoblanadi: konsession munosabatlar uzoq muddatli tavsifga ega; tadbirkorlik tuzilmalarida konsessiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda erkinlikka ega bo'ladi; konsessioner tomonidan shartnoma shartlari buzilganda, davlat xususiy sektorga muayyan darajada ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi[8].

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi muhim institutsional vosita ekanligini ko'rsatdi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xalqaro tajriba tahlili konsessiya, BOT, DBFO, lizing va aralash mulkchilik modellari hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishda keng qo'llanilayotganini tasdiqladi.

---

<sup>1</sup> Шарингер Л. Новая модель инвестиционного партнерства государства и частного сектора / Л. Шарингер // Мир перемен. - 2004. - № 2. - С. 22.

Tahlillar asosida davlat-xususiy sheriklik loyihalari transport, energetika, sogʻliqni saqlash va taʼlim sohalarida iqtisodiy barqarorlikni taʼminlovchi omil sifatida shakllanayotgani aniqlandi. Oʻzbekistonda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy bazasi va institutsional mexanizmlarining takomillashuvi hududiy investitsion muhit jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- hududiy infratuzilma loyihalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qoʻllash;
- DXSh loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investitsiyalar ulushini oshirish;
- davlat va xususiy sektor oʻrtasida risklarni taqsimlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;
- transport, kommunal xizmatlar, sogʻliqni saqlash va taʼlim sohalarida konsessiya va BOT modellaridan faol foydalanish;
- DXSh loyihalarini baholashda xalqaro standartlar va Value for Money (VFM) metodologiyasini joriy etish;
- hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida institutsional va huquqiy muhitni yanada takomillashtirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, yangi ish oʻrinlari yaratilishi hamda davlat resurslaridan samarali foydalanishni taʼminlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022–2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Djumaniyazov U.I. “Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari” // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017-yil № 3, may-iyun, 9-b.
3. Родионов А.В., Звуагина А.В., Крут А.А. Риски при реализации проектов государственно-частного партнерства: классификация, управление, направленная минимизация // АИИ: экономика и управление. 2020. №3 (32).
4. Salayev S., Abdikarimova Z. Davlat-xususiy sheriklik innovatsion hamkorlik modeli: mazmuni, farqli jihatlar va asosiy belgilar //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – T. 10. – №. 6. – S. 97-107.
5. Davlat-xususiy sherikligi Oʻzbekiston va Yevropa miqyosida // <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4649/>
6. Toshmanov, X. A. "DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI." Ustozlar uchun 1.1 (2025): 117-120.
7. Nishanov, Shoazam. "Tijorat Banklarda Operatsion Risklarni Boshkarishning Nazariy Asoslari." Green Economy and Development 3.12: 668476.

8. Qurbonov, Umidjon. "MISHEL MONTEN FALSAFASIDA GUMANISTIK ANTROPOTSENTRIZM MASALALARI." Scientific journal of the Fergana State University 1 (2023): 193-193.

9. Jabbarov, Nodir. "Transformatsiyalash Jarayonida Tijorat Banklari Kreditlari Amaliyoti Bilan Bog‘liq Muammolar Va Ularni Kamaytirish Yo‘llari." Green Economy and Development 3.12: 668257.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**